XALQ DEPUTATLARI ANDIJON SHAHAR KENGASHI
QAROR

2023 - yil 12 - oktabr VI-46-67-1-29-K/23 Andijon shahar hokimligi

Andijon shahar “Bog‘i Eram”, “Birlik”, “Farobiy”, “Dalvarzin”, va “Islomobod”, MFYlar hududida joylashgan nomsiz ko‘chalarga nom berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining “Geografik ob’ektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi Ekspert xulosasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risda”gi Qonunining 6-, va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Andijon shahar Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining “Geografik ob’ektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi Ekspert xulosasi asos uchun qabul qilinsin.

2. Andijon shahridagi quyidagi 5 ta “**Bog‘i Eram” MFY xududidagi** nomsiz ko‘cha Bog‘i Eram ko‘chasi, **“Birlik” MFY xududidagi** nomsiz ko‘cha Ijtimoyat ko‘chasi, **“Farobiy” MFY xududidagi** nomsiz ko‘cha Iqtidor ko‘chasi, **“Dalvarzin” MFY xududidagi** nomsiz ko‘cha Dalvarzin ko‘chasi, **“Islomobod” MFY xududidagi nomsiz** ko‘cha Gulbog‘ ko‘chalari deb nomlansin.

3. Andijon shahar hokimining kapital qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari F.Ergashevga o‘n kunlik muddatda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligiga Geografik ob’ektlarning nomlari davlat reestriga kiritish uchun tegishli hujjatlar yuborilsin;

4. Kambag‘allikni qisqatirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i v.b (A.Sotvoldiev), shahar statistika bo‘limi, davlat kadastrlar palatasi Andijon shahar filiali, (Sh.Mannapov), shahar qurilish boshqarmasi va boshqa vakolatli idora va tashkilotlar, yangi nom berilgan ko‘chalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, elektron bazaga tegishli o‘zgartirishlar kiritish vazifasi yuklatilsin.

5. Shahar IIO FMB boshlig‘i (Sh.Nazirov) ushbu ko‘chalarda yashovchi fuqarolarni pasportlariga belgi qo‘yishda inobatga olinsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining doimiy komisiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Andijon shahar Kengashi raisi



G.Abduraxmanov